

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'SMIRLARNI OILAGA TAYYORLASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Osiyo xalqaro universiteti

70110102 – “Pedagogika va psixologiya” fakulteti

II boshqich magistri

Qodirova Ziyoda Tohirjon qizi

Har bir millat o‘ziga xos qadriyatlarini vujudga keltirib, davrlar o‘tishi bilan ularning yangi-yangi jihatlarini shakllantirib, sayqallashtirib boraveradi. Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy tafakkuri natijasidir. Milliy qadriyatlar takomillashtirilib, keyingi avlodga zamon bilan hamnafas holda etkazilsa, millat taraqqiyotida ahamiyati kattadir. Aks holda, milliy qadriyatlarning tanazzuli - millatning tanazzulidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Ma’naviyuma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasida: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”¹, - deb ta’kidlagan. Milliy qadriyatlarda har bir millatning tarixi, urf-odatlari, ma’naviyati va madaniyati bilan bog‘liq jihatlari namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining ham uzoq tarixga ega milliy qadriyatlari shular jumlasidandir. O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va qadriyatlardan tizimi, millatimizning tarix silsilalari, zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllanib keldi. Milliy qadriyatlarni millatning kelib chiqish xususiyatlari va hududiy makoni bilan bog‘liq holda shakllandı. Zotan, har bir millat o‘z qadriyatlarning yaratuvchisigina emas, balki uni asrab avaylovchi va kelajakka etkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Bu esa mas’ullikning faqat alohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo‘lishini anglatadi. Oilada bolaga salomlashish, to‘g‘ri ovqatlanish, kiyinish madaniyatidan tortib, o‘zidan kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro ijobjiy muloqot, jamoa orasida o‘zini tutish, nonni e’zozlash, suvni toza saqlash, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tmaslik, otaonaning hurmatini joyiga qo‘yish, ustoz-murabbiylarni hurmat qilish, tabiat va atrofmuhitni toza saqlash kabi ma’naviyuma’rifiy o‘g‘itlarni turli rivoyat, maqol, hikmat va nasihatlar orqali singdirib boriladi. Sharqona millatimizga xos bo‘lganadolatlilik, to‘g‘rilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, samimiylilik, sadoqatlilik, do‘siga sodiqlik, ilmlilik, mehr-oqibatlilik, mehmondo‘slik va to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onalar orqali farzandga singdiriladi. Bu qadriyatlarni oilaviy qadriyatlardan asosida singdirib borilsa birmuncha oson kechadi deyish mumkin. Chunki, oilada ota-onadan kundalik o‘git va vazifalar sifatida ham shakllantirib boriladi. O‘z navbatida milliy qadriyatlarning sirasiga piru-badavlat nuroniy onaxonlar uotaxonlarimizni e’zozlash, ularning dono aytgan fikrlari, o‘gitlari, pand-nasihatlarini olish, keksayganda ylarga tirkak bo‘la olish singari milliy qadriyatlarning ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Ota-onalarga qarilik chog‘ida moddiylik emas,

balki oila a'zolari tomonidan berilgan mehr-muhabbat, samimiylilik, shirin so'z orqali qalbini ko'tarish va dalda berish muhimdir. Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ularning yosh va individual xususiyatlari e'tiborga olinmayotganligi, tarbiyaviy yondashuvning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar oilaviy ajrimlarning ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z o'zidan ma'lumki, ular ongiga milliy va oilaviy qadriyatlarning yaxshi singdirilmaganligidir. Zero, bu borada ota-onalarning o'zлari farzand tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan doimo qurollanishlari talab etiladi. Aynan er-xotinning oilani barpo etish motivlari va maqsadlari haqida bilimga ega emasligi, umumiyligi qadriyatlarni tushunishning yo'qligi, mustahkam oilaviy an'analarning shakllanmaganligidir. Oilaviy qadriyatlar va uni mustahkamlash borasidagi masalalar hukumat me'yoriy hujjatlarida ham o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 martdag'i "Xotinqizlar bilan ishslash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 200-son qarori2 qabul qilinib, bunda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, erta nikoh va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni ko'rish masalalar belgilab berilgan. Ma'lumki, bu borada amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, qadriyatlarimizga yot bo'lgan mafkuralarning kirib kelishiga asosiy sabablar qilib quyidagilarni keltirish mumkin: - yoshlarning qadriyatlarimizning mohiyati va ahamiyatini anglab etmasligi; - nafaqat o'smir-yoshlar, balki ayrim katta yoshli insonlarning o'zlarida ham qadriyatlarga nisbatan e'tiborlarining susayib borayotganligi; - "Ommaviy madaniyat"ning ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyilishi natijasida qadriyatlarimizga yot bo'lgan mafkuralarni singdirishga harakat qilinayotganligi; - qadriyatlar, urf – odal va an'analarning asl mazmun-mohiyati yosh avlod ongiga ilk davrdan singdirib borilmayotganligi va hokazolar. Xalqimiz tomonidan Navro'z bayrami keng nishonlab kelinayotgani bu, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'zida namoyon etadi. Navro'z bayramida tayyorlanadigan sumalak sayillari, qo'shiqlar, har xil milliy taomlarni tayyorlanishi o'zbek millatining tarixan boy urf-odatlaridan darak beradi. Navro'z bayramining yana eng muhim tomoni shundaki, milliy qadriyatlarimizni kelajak avlodga zamon bilan hamnafas qilib etkazishdir. Navro'z bayramning yana saxovatpeshalik, bag'rikenglik, samimiylilik kabi olijanob qadriyatlar asarlar osha o'tib, sayqallanib, yangicha ma'no kasb etib, yashab kelmoqda. Navro'z – yangilanish, yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq yangi kunning boshlanish bayramidir. "Navro'z" so'zi fors tilidan olingen bo'lib, "Nav" – yangi, "Ro'z" – kun, ya'ni "Yangi kun" degan ma'noni anglatadi. 21 mart kecha va kunduz tenglashgan kun – yangi yil – Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. Navro'z juda qadimiy bayram ekanligi haqida Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"³, Umar Hayyomning "Navro'znomalar"⁴ asarlarda keng yoritilgan. Ushbu asarlarda bayramning paydo bo'lish tarixi, u bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Ma'lumki, milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar ham o'smirlarni oilaga tayyorlashda o'z xususiyatlari hamda tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Iqtisodiy qadriyatlar. Iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o'rtasidagi o'zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag'rikenglik, ishonchlik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha – iqtisodiy qadriyatlar deyiladi. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida eng zaruriylari – erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonidan hamisha e'zozlab, qadrlanib kelingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu borada: "O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadrqimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadibir o'ziga xos xususiyati shundaki, xalqimizga, millatimizga xos yuksak insoniylik, mehr-muruvvat, oqibat, qadr-qimmat.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Xulosa qismi: Yuqoridagi masalalardan kelib chiqib, yurtimizda milliy qadriyatlar xalqimizning azaliy orzu-umidi bo‘lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, yurtimizning kelajagi uchun suyanch va tayanch bo‘ladigan barkamol o‘smir-yoshlarni voyaga etkazib, tarbiyalash imkonini beradi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida jamoatchilik tashkilotlari o‘rtasida uzviy hamkorlik, yagona yondashuv tizimining yo‘qligi muammoning asosiy ildizini tashkil etadi. Shu sababli, mazkur yo‘nalishda, birinchi navbatda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash eng asosiy dolzarb vazifalardan biri bo‘lsa, oilalarni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni saqlash va oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish borasida ham manzilli ishslashni tashkil etish, shuningdek, ajrim yoqasiga kelib qolgan yosh oilalarni aniqlab olish va ularning muammolarini keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda hal qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada farzandlarni tarbiyalash, ularni milliy, umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlар va an’analardan bahramand qilish, bilim darajalarini oshirish uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar mavjud. O‘smir-yoshlar oilada ulg‘ayar ekan, uning barcha xarakterida, xulq-atvorida atrof-muhit va oilaga bo‘lgan munosabat, kelajakda o‘zining oila turishi, farzandlar tarbiyalashi haqidagi fikrlari ham takomillashib boraveradi.